

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.A.Abduvaliyev</b>	
Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar .....	648
<b>M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova</b>	
Farg'ona shahar tabiiy yer osti buлоq suvlarining hidroekologik holati.....	652
<b>M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev</b>	
Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili .....	657
<b>T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Usmonov, O.A.Turdiboyev</b>	
Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981) .....	662
<b>M.X.Akbarova, O.Turdiboyev</b>	
<i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi .....	667
<b>M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov</b>	
Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024) .....	670
<b>M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov</b>	
Bo'yoqbop drok-( <i>Genista tinctoria</i> ) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari .....	674
<b>G.N.Shokirova</b>	
Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash .....	677
<b>I.P.Urinboev, F.P.Jumaboeva</b>	
Opylenie i plodoношение цветков вида липа ( <i>Tilia tomentosa</i> ), интродуцированного в ферганскую урбинофлору.....	682
<b>M.A.Davidov, I.P.Urinboev</b>	
Opylenie i цветение видов липы во флоре города Ферганы.....	686
<b>M.A.Masodiqova</b>	
Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi .....	689
<b>M.A.Masodiqova</b>	
Eribidae oilasi ( <i>Limantriya dispar</i> ) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi .....	692
<b>V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev</b>	
Shohimardonsov havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....	695
<b>M.Q.Asadova</b>	
Poliploidiya va uning boshoqli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati .....	698
<b>M.M.Mamajonova, V.Mahmudov</b>	
Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiysi va istiqbollari .....	701
<b>S.M.Xaydarov, F.N.Mingboev</b>	
Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosuvu'tini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish .....	703
<b>S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboev</b>	
Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish .....	706
<b>Z.A.Yusupova</b>	
Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasi .....	709
<b>Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov</b>	
Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....	712
<b>Z.A.Yusupova</b>	
O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari .....	717
<b>M.P.Yuldasheva</b>	
Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili (JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida) .....	721
<b>M.K.Aсадова</b>	
Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования .....	726
<b>B.Махмудов, М.К.Жабаралиева</b>	
Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия .....	729



УО'К: 582.5:615.32:615.89

**MAVRAK TURLARINING XALQ TABOBATIDA HAMDA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI.****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОРТА МАВРАК В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ И МЕДИЦИНЕ.****USE OF MAVRAK SPECIES IN FOLK MEDICINE AND MEDICINE.****Yusupova Zohidaxon Abdumalikovna<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti botanika, bioteknologiya va ekologiya kafedrasi dostoni**Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti Agrar qo'shma fakulteti talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqlada mavrak turkumi vakillarining tibbiyotda qo'llanilishi va inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan. Marmarak (mavrak, shalfei)-ko'r yillik o'simlik yoki yarim butalar turkumi. Marmarak turkumi vakillarining vatani O'rta yer dengizi sohillari sanaladi. Mavrak o'simligi Yalpizdoshlar (Lamiaceae L.) oilasiga, Salvia L.-shalfei, marmarak, zig'irak turkumiga kiradi. Lotin tilida "salvara" davolamoq degan ma'noni anglatadi. Turkumning aksariyat turlari davalash maqsadida ishlatalidi. Bu turkum vakillari bir yillik va ko'r yillik o't, chala buta, tropik mamlakatlarda esa buta va daraxtsimon o'simliklardir. Labguldoshlar oilasi 170 avlod, 3400 turdan iborat katta oila bo'lib, asosan issiq va mo'tadil iqlimli mintaqalarda tarqalgan.

**Аннотация**

В данной статье рассказывается о применении представителей группы маврак в медицине и их значениях в жизни человека. Мармарак (маврак, шалфей) - род многолетних растений или полукустарников Родиной представителей рода Мармарак считаются берега Средиземного моря. Растение маврак относится к семейству Lamiaceae L.-осоковые, Salvia L.-род шалфейных, мармараковых, льняных. В переводе с латыни «салвара» означает «исцелять». Большинство видов категории используются в лечебных целях. Представителями этой категории являются однолетние и многолетние травы, кустарники, а в тропических странах кустарники и деревья. Губоцветные-большое семейство, состоящее из 170 родов и 3400 видов, распространенных преимущественно в теплых и умеренных регионах.

**Abstract**

This article describes the use of representatives of the mavrak group in medicine and their importance in human life. Marmarakis a genus of perennial plants or semi-shrubs. The homeland of representatives of the Marmarak genus is considered to be the shores of the Mediterranean Sea. Marmarak plant belongs to the Lamiaceae L - family of sedges, Salvia L. - sage, marmarak, flax family. In Latin "salvara" means to heal. Most species of the category are used for therapeutic purposes. Representatives of this category are annual and perennial grasses, shrubs, and in tropical countries, shrubs and trees. Lamiaceae (L.) is a large family consisting of 170 genera and 3400 species, distributed mainly in warm and temperate regions.

**Kalit so'zlar:** yalpizdoshlar oilasi, mavrak, buta, qaynatma, damlama, efir moylari, ekstrakt.**Ключевые слова:** семейство губоцветные, шалфей, кустарник, отвар, настойка, эфирные масла, экстракт.**Key words:** family of lamiaceae, mavrak, bush, decoction, tincture, essential oils, extract.**KIRISH**

Oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrilar tayyorlash mazmunini qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 2909 "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda oliy ta'lif tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalar belgilandi.

Ana shu ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, respublikamizning turli oliy ta'lif muassasalarida, xususan, Farg'ona davlat universitetida dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta

## BIOLOGIYA

ishlash texnologiyasi bakalavr yo'nalishi ochilgan. Yo'nalish talabalari dorivorlik xususiyatlari o'rganilgan o'simliklarni etishtirish va tayyorlash texnologiyasi bo'yicha mutaxassislar yetishtirish yo'lga qo'yildi.

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlardan foydalana boshlagandan buyon dorivor o'tlardan, giyohlardan turli kasalliklarni davolashda foydalanib kelgan. Bundan 3-4 ming yillar avval Hindiston, Xitoy, Qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan, O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining qadimiy an'analariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida keltirilgan ma'lumotlar qimmatlidir.

Dorivor o'simliklar farmasevtika va tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladi. Ulardan inson salomatligini mustahkamlovchi, hayotini saqlab qolishga xizmat qiluvchi dori-darmonlar va preparatlar tayyorlanadi.

Shunday ekan, dorivor o'simliklarni parvarishlash va yetishtirish, ulardan samarali foydalanish usullarini aniqlash, amaliyotda dorivor o'simliklardan dori preparatlari yetishtirishda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda zamonaviy tibbiyot amaliyotida qo'llanilagan aksariyat dorivor o'simliklar zaxarli emas yoki kam zaxarli bo'lishi bilan sintez qilib olingen moddalardan farq qiladi. Sababi, o'simlik ham hayvonlar singari hujayra va to'qimalardan tarkib topgan bo'lib, tirk organizm xususiyatlariga ega. Buning ustiga insonlarda qadimdan o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlariga irsiy moyillik mavjud, ya'ni inson organizmi muayyan dorivor va mevali o'simliklarga o'rganib qolgan. Bundan tashqari, dorivor o'simliklar bizni o'rab turgan tabiatda mavjud va uni yigib olish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ulardan uy sharoitlarida damlamalar, nastoykalar kabi sodda dorivor vositalar tayyorlash oson. Shu sababli ham dorivor o'simliklardan olinayotgan dori preparatlarning soni yil sayin ko`paymoqda, yangi asorat qoldirmaydigan bezarar dorilar ishlab chiqarilmoqda. Bular esa o'z navbatida dorivor o'simliklarning xar yilgi tayyorlash miqdorini, kerakli dorivor o'simliklar o'sadigan yangi yerkarni izlab topishni yoki ularni madaniylashtirishni hamda plantatsiyalarda yetishtirishni yo'lga ko'yishni, ularni fermer va davlat xo'jaliklarida ekishni hamda yangi o'simliklarning, ayniqsa, xalq tabobatida qo'llanilayotgan dorivor o'simliklarni biokimyoiy tekshirishni va tibbiyot amaliyotiga kengroq joriy etishni talab etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlarda asosan Yalpizdoshlar (*Lamiaceae*) oilasining tabiiy holda tarqalgan vakillari haqida ma'lumot beriladi. Masalan, S.Holiqov, O'.Pratov va A.Fayziyev « O'simliklar aniqlagichi » (Toshkent « O'qituvchi »-1995, 114-118-b.) kitobida Yalpizdoshlar (*Lamiaceae*) oilasining umumiy tavsifi hamda shu oilaga mansub *Mentha asiatica*, *Salvia sclarea L.*, *Ziziphora tenuior L.* va boshqa ayrim turlari haqida ma'lumot keltirib o'tganlar.

O'.Pratov, X.Axunov, V.Mahmudov va b. «Botanika» (Toshkent «Ta'llim nashriyoti», 2010, 232-234-b.) kitobida Yalpizdoshlar oilasining umumiy hamda shu oilaga mansub ayrim turlarning qisqacha botanik ta'rifi keltirilgan.

K.Toyjonov, S.Meliboyev, V.Mahmudovlar « O'zbekiston yuksak o'simliklari turkum nomlarining izohli lug'ati » (Toshkent «Fan» nashriyoti, 2008.69-73-b.) kitobida *Mentha L*, *Ocimum L*, *Salvia L*, *Mentha L*, *Melissa L*, *Lycopis L*, *Thymus L*, *Satureja L* va yana birqancha turkumlari nomining ma'nolari hamda kelib chiqishi haqida ma'lumot bergenlar.

A.M.Mahmedovning "Шалфей Средней Азии и Казахстана" (1984 y.) nomli kitobi chop etiladi va ushbu kitobda O'rta Osiyo florasida anchagina katta mavqega ega bo'lgan shalfeylar turkumi to'g'risida atroficha ma'lumotlar keltiriladi. Kitobning asosini ushbu turkum sistematikasi oid materiallar tashkil etadi.

V.Maxmudov, A.V.Maxmudovlarning "Dorivor o'simliklar flora va sistematikasi" (Toshkent «Fan» nashriyoti, 2022, 263-283b) darsligida Yalpizdoshlar (*Lamiaceae*) oilasi turkumi turlarining morfologik tuzilishi, hayotiy shakli, sistematikasi, bio'kologiyasi va dorivorlik xususiyatlari va «Qizil Kitob»ga kiritilgan turlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalilanilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tibbiyotda mavrakning yer ustki qismi ishlatiladi. Bargining damlamasi burushtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo'llari yallig'lanishida, tomoq, og'iz va milk shilliq pardalari yallig'lanishida og'iz chayish uchun

qo'llaniladi[1].Qaynatmasi xalq tabobatida yurak kasalliklarida, kishi darmonsizlanganida, bezgak, buyrak kasalliklarini davolashda hamda ovqat hazm bo'lishini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Ekstraktidan tayyorlangan surtmasi va ekstraktining konsentratsiyasi- salmus teri kasalliklarini (psorioz-po'stloqli temiratki) davolashda yaxshi natijalar bergen. Shuning uchun bu preparatlar ilmiy tibbiyotda ishlatalishga tavsiya etilgan.Efir moyidan dorishunoslik amaliyotida suyuq dorishakllarining hidi va ta'mini yaxshilashda foydalaniladi [2,3].

Yer ustki qismining damlamasi yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarda hamda tomoq og'riganda chayish, ishtaha ochish va isitmada, tashnalikni qondirish uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismi Zdrenko choyi-yig'masi tarkibiga kiradi.

S. austriaca Jacq.(Avstriya mavragi) tuberkulyozni(sil)davolashda, ildizinig ekstrakti, protozoy bakteriyalari va zamburug'lariqa qarshi kurash vositasi hisoblanadi. Barglari urug'larini unib chiqishini ingibraydi. Gullarining efirmoylari parfyumeriya sanoatida foydalaniladi. Asal beruvchi va manzarali o'simlik hisoblanadi.

S.campyloidonta Botsch (Egilgan tishli mavrak) Ildizida: Xinonlar: tanshinonlar bakterotsid xossaga ega [5,6,7].

S. deserta.Schang (S.nemorosa auct) (Cho'l mavragi) Xinonlar olish manbai hisoblanadi.Uning efir moylari antimikotik (Zamburug'larga qarshi) ta'siriga ega. Ildizi va bargidan tayyorlangan qaynatma, damlamalar antibakterial faollikka ega. O'simlikning yer ustki qismi: Ichak infeksiyalarida va lixoratkada qo'llaniladi.Barglari: Damlamasi baqani yuragiga kamfora kabi ta'sir etadi. Barglari, gullari:yurak nevrozlarida, nevrosteniyada qo'llaniladi. Mevasi: tuyilgan holda, moy bilan yaralarni bitiruvchi vosita sifatida ishlataladi. Qovurilgan va maydalangan barglari taxikardiyada va dizenteriyada ishlataladi. Asal beruvchi o'simlik bo'lib, 1 gaserdan asalarilar 160 kg nektar to'playdilar[11].

S. dumetorum Andrz (Butasimon mavrak): Royleanon antibakterial faollikka ega. Ildizining ekstrakti bakteriastatik xossaga ega.

S. garedji Troitzk.(Garedji mavragi) Yer ustki qismining efir moyi parfyumeriyada foydalaniladi. Yer ustki qismining hosildorligi 8t/gA, efir moyining unumi 17 kg/ga.

S.grabricaulis Pobel (Yalong'och poyali mavrak) Ildizini ekstraktlari, antimikrob faollikka ega. Manzarali o'simlik.

S. glutinosa L (Temirli mavrak) Siyidik-tosh kasalliklari, yiringli yaralarni davolashda qo'llaniladi. Soki va ekstrakti yaralarni tuzatuvchi antibakterial va antifungal ta'siriga ega. Efir moylari parfyumeriyada fiksator sifatida qo'llaniladi.Barglari bronxial astmada qo'llaniladi. Asal beruvchi o'simlik va manzarali.

S.horminum L (Gormin mavragi) . O'rta asrlarda Armaniston fitoterapiyasida impotensia va o'simtalarni davolashda qo'llanilgan. Shilliq pardali o'simtalarni davolashda faolligi bor. Ildizida. Xinon ekstrakti bo'lib, antibakterial faollikka ega. Xushmanzara o'simlik.

S. kuznetzovii Sosn (Kuznetsov mavragi) Yer ustki qismi damlamasi va bug'latilgani stenokardiyada ishlataladi. Asal beruvchi, manzarali o'simlik.

S. lilacoverulea.(Ko'kish rangli mavrak). Tut ipak qurtining yashovchanligini oshiradi. Efir moylari parfyumeriya va kosmetikada qo'llaniladi. Manzarali o'simlik.

S. macrosiphon Boiss (Uzun trupkali mavrak) Ildizida xinonlar antibakterial faollikka ega. Yer ustki qismida repellentlik xususiyati mayjud.To'p gulidan Afg'onistonda balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Urug'idan Eronda yurak faoliyatini buzilishida, xomiladorlikdagi nevrozlarda, to'g'riqdan keyingi xolsizlanishda, sesteniyada va o'pka kasalliklarida foydalaniladi[8,10].

S. modesta Boiss. (Kamtarin mavrak) Bolgariyada ekstrakti bolalarni diareya kasalliklarini tuzatishda, qon tupirishda, yaralarni davolashda, frunkulyozda qo'llaniladi. Xinonlar antibakterial faollikka ega. Ildizining xloroformdagagi fraksiyasi antibakterial xossaga ega. Ekstrakti bakteriostatik xossaga ega. O'simlikning yer ustki qismi gastralgiyada qo'llaniladi. Efir moylari parfyumeriyada va kosmetika sanoatida qo'llaniladi. Barglari quyon ovqatiga qo'shib berilsa, ishtahasini ochib, xashakni oxirigacha eydi.

S. nutans L.(Vaximali mavrak). Efir moylari parfyumeriya sanoatida fiksator sifatida qo'llaniladi. Ildizining ekstrakti bakteriyastatik xossaga ega. Xinonlari antibakterial xossaga ega.Yer ustki qismi atralgiyada qo'llaniladi. Barglari urug'larni o'sishini sekinlashtiradi. Asal beruvchi va manzarali o'simlik hisoblanadi.

S. pachystachya Trautv. (Yo'g'on boshqoqli mavrak) Xinonlar antibakterial xususiyatga ega. Ildizining ekstrakti bakteriastatik ta'siriga ega.

## BIOLOGIYA

*S. pratensis* L (Oddiy shalfey) Ekstrakti oshqozon ichak kasalliklariда, qichitma, zamburug'li teri kasali, ekzema, skrofulez kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Ekstrakti va xinonlar antibakterial faollikka ega. Oshlashda foydali. Ildizining ekstrakti bakteriastatik va fungostatik xossaliga ega. Yer ustki qismining qaynatmasi revmatizmda qo'llaniladi.

Barglarining ekstrakti o'tkir yuqumli resperator kasalliklarini davolashda, stomatit, paradantoz, angina va terini kasalliklarda ishlatiladi. Urug'lari o'sishni sekinlashtiradi. To'p guli efir moylari antimikotik ta'sir ko'rsatadi. Parfyumeriya qo'llaniladi. Asal beruvchi va manzarali o'simlik. 1 ga erdan 280 kg nektar yig'ib olinadi.

*S.sarawschanica* Regel et Schmalh (Zarafshon mavragi). Tojikistonda yurak kasalliklarda ishlatiladi. Efir moylari parfyumeriya va kosmetika sanoatida ishlatiladi. Ildizini ekstrakti fungistatik faollikka ega [11,12,13,14].

*S. sclarea* L (Muskat mavragi) Stomatologiyada, kariesda, pulpida, periodontida, kataral gingivitda. Ekstraktini surkab, psoriaz davolanadi. Buyrak tosh kasalliklarda ishlatiladi. Damlamasni nafas olishni tezlashtiradi va arterial qon bosimini orttiradi. Flavonoidlar diurezni 89% ga ko'paytiradi. Konserva sanoatida aromatizator sifatida ishlatiladi. Ildizining ekstrakti antibakterial faollikka ega. Yerustki qismi: lixoratkada, ovqat hazm qilishni yaxshilashda, oshqozon yarasida, bosh og'rig'ida, epilepsiyada, antiseptik, siyidik pufagining kasalliklarida qo'llaniladi. Poliartritda - vanna sifatida qo'llaniladi, osteomielit, artrozda, trofikyalaralarda qo'llaniladi.

Barglari. Spazmolitik shamollahga qarshi, qaynatmasi nafas yo'llarining yuyuqumli kasalliklarda, tomoq og'rig'ida, pereostitda, yiringli yaralarni va furunkulni davolashda qo'llaniladi [10,11].

*S. spinosa* L (Tikanli mavrak) O'rta Osiyoda oshqozon kasalliklarda, yurak nevrozida va nevrasteniyada qo'llaniladi.

Barglari. Tish og'rigida qo'llaniladi. To'p guli. Efir moylar, parfyumeriya va oziq-ovqat sanoatida qo'llaniladi. Urug'i dizenteriyada va ko'z kirini yuvishda ishlatiladi.

*S. spinosa* Shost.(Cho'l mavragi). Ekstrakti antifungal (hashoratlarga qarshi) xossaga ega. Ildizi. Yuqumli kasalliklarini infeksiyaga qarshi kurashuvchi xossaga ega. Xinonlar- antibakterial. Asal beruvchi va manzarali o'simlik.

*S. tesquicola* Klok.et Pobed. (Quruq cho'l mavragi) Ildizlari insonni yuqumli kasalliklarini bakteriyalarga qarshi ta'sirga ega. Yer ustki qismi oshqozon sanchig'i, nevrozida, nevrasteniyada, bronxitda, ishtaxa ochib yaxshilovchi, shamollahga qarshi, yaralarni bitkazuvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Barglari. Stomatit, parodontozda, angina, surunkali teri kasalliklarda qo'llaniladi. Asalberuvchi o'simlik.

*S. tementosa* Mill.(SH. Voylochniy) Ildizining ekstraktatik faollikka ega.Barglari gipergidrozda, laktatsiyani kamaytirishda stomatitda, laringitda qo'llaniladi. Lavr barglarini va choyini surogati hisoblanadi. Asal beruvchi va manzarali o'simlik.

*S. trautvetteri* Regel.(Trautfetter mavragi) Ildizi. Yuqumli kasalliklarini bakteriyalariga chidamli xususiyatga ega. Suvli ekstrakti ipak paxta va sherstni och pushti va och siyoh rangga bo'yaydi. Manzarali o'simlik.

*S. turcomanika* Pobed.(Turkman mavragi). Ildizining ekstraktida yuqumli kasalliklarni bakteriyalariga qarshi va bakteriostatik xossalarga ega. Xinonlar-antibakterial xossaga ega. Yer ustki qismi. Ekzemaga qarshi qo'llaniladi. Asal beruvchi, perga beruvchi va manzarali o'simlik. Hashoratlarni qo'rquituvchi vosita.

*S. verbenasa* L. (Verbasimon mavrak) Efir moylarida antimikotik faollikka ega. Ildizining ekstraktida yuqumli kasalliklarini bakteriyalariga chidamsiz. Xinonlar-antibakterial xususiyatga ega. Urug'ining xususiyati. Qaynatmasi kon'yunktivitda qo'llaniladi.

*S. viridis*.L. (Yashil mavragi). Ildizining ekstrakti yuqumli kasalliklarini oldini olish xususiyatiga ega. Xinonlar: antibakterial xususiyatiga ega. Urug'ining qaynatmasi enurez va konyunktivit kasalliklarada qo'llaniladi.

## XULOSA

Xalq tabobatida mavrak o'simligining quyidagi turlari shifobaxsh o'simlik sifatida ishlatiladi. Temir tukli mavrak (*Salvia adenostachya*), Efiopiya mavragi (*Salvia Aefhiopis.L.*), Avstriya mavragi (*Salvia austriaca Jacq.*), Oq(oqargan) mavrak (*Salvia canescens C.A.Mey*), Shoxli mavrak (*Salvia ceratophylla*), Cho'l mavragi (*Salvia deserta. Schang (S.nemorosa auct)*), Butasimon mavrak

(*Salvia dumetorum* Andrz), Fomyon mavrvgi (*Salvia fominii* Grossh.), Garedji mavragi (*Salvia garedji* Troitzk.), Yalong'och poyali mavrak (*Salvia grabricaulis* Pobed.), Temirli mavrak (*Salvia glutinosa* L.), Gormin mavragi (*Salvia horminum* L.), Kopetdog' mavragi (*Salvia kopetdaghensis* Kudr.), Kuznetsov mavragi (*Salvia kuznetzovii* Sosn.), Naqshli mavrak (*Salvia limbata* C.A.Mey.), Uzun trupkali mavrak (*Salvia macrosiphon* Boiss.), Kamtarin mavrak (*Salvia modesta* Boiss.), Daraxtzor mavragi (*Salvia nemorosa* L.), Vaximali mavrak (*Salvia nutans* L.), Yo'g'on boshoqli mavrak (*Salvia pachystachya* Trautv.), Oddiy mavrak (*Salvia plebeja* R. Br.), Oddiy shalfei (*Salvia pratensis* L.), Zarafshon mavragi (*Salvia sarawschanica* Regel et Schmalh.), Shmalgauzen mavragi (*Salvia schamalhausenii* Regel.), Muskat mavragi (*Salvia sclarea* L.), Tikanli mavrak (*Salvia spinosa* L.), Cho'l mavragi (*Salvia spinosa* Shost.), Quruq cho'l mavragi (*Salvia tesquicola* Klok. et Pobed.), SH. Voylochniy (*Salvia tementosa* Mill.), Trautfetter mavragi (*Salvia traутветтери* Regel.), Turkman mavragi (*Salvia turcomanica* Pobed.), Sigir chaquvchi tikanli mavrak (*Salvia verbascifolia* Beib.), Verbasimon mavrak (*Salvia verbenasa* L.), Doirasimon mavrak (*Salvia verticillata* L.) va Qizil gulli mavrak (*Salvia splendens*).

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qollaniladigan shifobaxsh osimliklar. Toshkent, 1993.
2. Kursanov A. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafayev S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
4. Nabiiev M. Botanika atlas-lug'ati. —Toshkent, 1969.
5. Xoliqov S.X. va boshqalar. Farg`ona vodiyining O'zbekiston Qizilkitobiga kiritilgan o'simlik va hayvonlari.
6. Oripov R.O. Xalilov N.X. Osimlikshunoslik –Toshkent, 2007.
7. Pratov O.P., Nabiiev M.M. Ozbekiston yuksak o'simliklarning zamonaviy tizimi Toshkent, 2007.
8. Xamidov G. O'zbekistonning foydali o'simliklarni muxofaza etish –Toshkent, 1990.
9. Xoliqov S., Pratov O. O'simliklar aniqlagichi –Toshkent, 1970.
10. Xolmatov X.X. va boshqalar. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari –Toshkent, 1991.
11. V. Maximov, A. Maximov. Dorivor o'simliklilar flora va sistematikasi. Toshkent. "Fan" nashriyoti, 2022.
12. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 472-479.
13. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. Scientific Impulse, 1(2), 692-695.
14. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIACEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 5(4), 64-68.
15. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). FEATURES OF THE GENUS LAMIACEAE FAMILY, WHICH WE KNOW AND DO NOT KNOW ABOUT. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 87-90.